
TOSHLOQ TUMANIDA XUSUSIY BOG'CHA FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Tumandagi "Teraktagi" mahallasida ochilgan "Ilk qadam" nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi toshloqlik tadbirkor Hanifaxon Otaxonova tomonidan bunyod etildi.

1 milliard so'm mablag' sarflangan bog'cha 100 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, bu yerda bolalarning sog'lom o'sishi, ta'lim-tarbiya olishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Xonalar zamonaviy mebel va o'quv jihozlari bilan ta'minlangan. Bu yerda bolalarga rus va ingliz tillarida saboq beriladi.

Ochilish marosimida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev hamda tuman prokurori Shuhratjon Musayevlar ishtirok etib, tadbirkor tomonidan bog'chada yaratilgan sharoitlar bilan tanishdilar.

2023-12-07 18:10:15